

KITOB BOLALAR UCHUN QANDAY AHAMIYATGA EGA!!!

Maftuna Qurbonova Oltiboy qizi

*O'zbekiston Respublikasi Surxondaryo viloyati Jarqo'rg'on tumani
16-sonli umumta'lim maktabining Ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha
targ'ibotchisi, Termiz Iqtisodiyot Termiz servis pedagogika psixologiya yo'nalishi 1-kurs
talabasi*



Har bir bolani yoshligidanoq ilmga shakllantirish kerak. Donishmandlarning aytganlardek; "Hech qachon ilmli kishi hech joyda xor-u zor bo'lmaydi" degan so'zlari bejizga aytilmagan. Bola ilmga kitobga mehr qo'yib, ilmli bo'lsa u boladan hech qachon yomon inson chiqmaydi. Inson o'zligini tarixini bilishi uchun ham ko'proq kitob o'qishi kerak. Kitob o'qigan bolaning dunyo qarashi o'sadi, dunyoga boshqacha ko'zda ko'radi.

1. Yulduzli tunlar
2. Ulug'bek xazinasi
3. Hamsa
4. Otamdan qolgan dalalar
5. Qutadg'u bilig
6. Jadidlar

Shunday kitob asarlarni ko'proq kattami yo kichik o'qisaki yanada ko'proq yangi narsalarni kashf etadi.

Ulg'ayib kelayotgan yoshlarni yuksak axloqiy va nafosat ruhida tarbiyalash, ilmiy dunyoqarashni uzluksiz shakllantira borish davlatning asosiy diqqat e'tiborida bo'lib kelmoqda. Yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish borasida boshqa sohalar kabi xalq ta'limi oldiga ham yangidan yangi va jiddiy vazifalar qo'yilmoqda. Yoshlarni mustahkam bilim asoslari bilan qurollantirish, ularda mustaqil fikrlash qobiliyatlarini o'stirish, har bir narsaga, atrof muhitga ijodiy va ongli yondashish ko'nikmalarini hosil qilish. O'sha kunning muhim masalalaridan hisoblanadi.

O'qituvchilar, farzand tarbiyasi, eng avvalo, unga bo'lgan muhabbat, doimiy e'tibordir. Menimcha, o'qituvchi mehribon, ochiq, g'amxo'r, tushunadigan, qiziqarli inson bo'lishi keraak. "O'qituvchi maksimal vakolat va minimal kuchga ega bo'lishi kerak". Men o'ylaymanki, bilim poydevorini qo'yuvchi, o'quvchida bilim olishga ijobiy yoki salbiy munosabatni shakllantiradigan birinchi o'qituvchidir.

Adabiy-badiiy asarlarda ko'pincha har bir matn persepsiyasi va bu jarayonga intertekstuallik hodisasining ta'sirini o'rganish ham badiiy asar tahlili, matnning o'ziga xosligi, kitobxon uchun foydali jihatlarini aniqlashda dolzarb ahamiyat egadir.

Hozirgi vaqtdan barcha yoshlar uchun juda katta imkoniyatlar yaratilgan. Muhtaram Yurtboshimiz kunu-tun biz yoshlar uchun harakatdadir. O'zbekiston yoshlariga beriladigan imtiyoz va subsidiyalar soni ko'payapdi. "Yoshlar daftari" dagi imtiyozlar soni 25 tagacha ko'paytiriladi, yoshlarga IT va chet tilini o'rganish uchun 1,2 mln so'mdan subsidiya ajratiladi, xalqaro olimpiadalar ishtirokchilariga xarajatlari uchun 12 mln so'mdan beriladi, fortepiano, maqom va baxshichilikka o'qiydiganlarning kontraktini davlat to'lab beradi. Biz O'zbekiston yoshlar ishonchini oqlashimiz kerak. Yangi o'zgarayotgan Konstitutsiya biz yoshlar kelajagimga xizmat qiladi. Shuning uchun biz yoshlar bevarq bo'lmaylik!!!